



YORITISHDAN FOYDALANIB, KINOFILM SURATGA OLISHDAGI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Karimbayeva Aziza Saidazim qizi

*Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universiteti Televizion va media texnologiyalar kafedrası o'qituvchisi*

aziza.karimbayeva92@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-2709-2884>

Annotatsiya. Maqolaning maqsadi - kino filmlarni yaratishga ta'sir qiluvchi omillarni ko'rish va tahlil qilishdir. Audiovizual mahsulotlarni suratga olinishi jarayonida yorug'likning rolini aniqlash. Yorug'lik bilan ishlashdagi xususiyatlar va alohida yorug'lik asosida vizual ko'rsatish. Yorug'lik bilan ishlashda tabiiy va pavilon sharoitlarida yorug'lik manbalaridan foydalanish qobiliyatining ahamiyatini isbotlash. Shuningdek vizual material sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash. Umumlashtirish - yorug'likning vizual material sifatiga ta'siri; o'zaro bog'liqlikni aniqlash (yorug'lik, kun vaqti hamda kadr yaratishga ta'sir qiluvchi yordamchi ob'ektlar); empirik shaxsiy tajribani tizimlashtirish, yorug'lik va vizual material sifati o'rtasidagi munosabatni aniqlash. Film tasvirini yaratishda yoritishning ahamiyatini tahlil qilish. Yoritish bilan ishlashdagi xususiyatlar va qiyinchiliklarni ko'rsatish. Tabiiy va pavilyon sharoitlarida yoritish manbalaridan foydalanish ko'nikmalarining muhimligini isbotlash. Vizual material sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash.

Аннотация. Цель статьи - рассмотрение и анализ факторов, влияющих на создание кинофильмов. Определение роли света в процессе съёмки аудиовизуальной продукции. Рассмотрение особенностей работы со светом и визуального представления на основе отдельного освещения. Обоснование значимости умения использовать источники света в естественных и павильонных условиях при работе с освещением. Также выявление факторов, влияющих на качество визуального материала.

Обобщение - влияние света на качество визуального материала; выявление взаимосвязи (свет, время суток и вспомогательные объекты, влияющие на создание кадра); систематизация эмпирического личного опыта, определение взаимосвязи между светом и качеством визуального материала. Анализ значения освещения в создании киноизображения. Показ особенностей и трудностей работы с освещением. Обоснование важности навыков использования источников освещения в естественных и павильонных условиях. Выявление факторов, влияющих на качество визуального материала.

Abstract. The purpose of the article is to examine and analyze the factors influencing the creation of motion pictures. To determine the role of lighting in the process of filming audiovisual products. To consider the characteristics of working with light and visual representation based on individual lighting. To justify the importance of the ability to use light sources in natural and studio conditions when





working with lighting. Additionally, to identify the factors affecting the quality of visual material.

The generalization includes the impact of lighting on visual material quality; identifying interrelations (lighting, time of day, and auxiliary objects influencing frame creation); systematizing empirical personal experience; and determining the relationship between lighting and visual material quality. An analysis of the importance of lighting in creating cinematic imagery is provided. The features and challenges of working with lighting are demonstrated. The significance of skills in using lighting sources in natural and studio conditions is justified. Factors influencing the quality of visual material are identified.

Kalit so'zlar: *yorug'lik, soya, tasvir, operator, kontrast, obyekt, kinofilm.*

Kirish. Suratga olish texnologiyalari rivojlanishi tufayli videokameralarni boshqarish soddalashtirilmoqda va narx siyosati tobora ommabop bo'lib bormoqda. Natijada, uskunalar xaridiga bo'lgan talab ortmoqda. Shuningdek kino suratga olishni istaganlar soni ham ko'payib bormoqda.

Yoritish manbalari bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lish va uni amalda qo'llay olish – operatorlik mahoratining eng muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Ayniqsa, yoritish bilan ishlash bir qarashda osondek tuyulishi mumkin bo'lsa-da, bu unchalik oddiy emas. Suratga olish jarayonida yosh operatorlar ko'pincha tasvirda nuqson keltirib chiqaradigan soyalar yoki yoritilgan nuqtalarni payqamay qolishadi. Yorug'lik – bu film yaratishda eng ko'p e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan omil bo'lib xizmat qiladi, uning xususiyatlarini tushunish va bu jarayonda duch kelinadigan qiyinchiliklarni bilish zarur hisoblanadi.

So'nggi tadqiqotlar va nashrlar tahlili tabiiy sharoitda tasvir yaratishda yoritishning rolini muvaffaqiyatli tasvirlab bergan - *D.Kilpatrick (1984)*. Muallif o'z kitobida kunning vaqtiga qarab, yoritish sxemasini yaratishga ta'sir qiluvchi omillarga urg'u bergan. Bu esa suratga olishda real va tabiiy ko'rinish uchun muhim hisoblanadi.

"Fotogenik" tushunchasini aniqlab, tabiiy sharoitda suratga olishning psixologik qabul qilinishini o'rganilgan. Kompozitsiya va yoritish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni L. Dyko va A. Golovnya (1962) tavsiflagan. Kinematografiyaning dastlabki davrlarida pavilyonlarda yoritish bilan ishlashning asosiy tamoyillari va qiyinchiliklarini L. Forestier (1945) tomonidan yoritib bergan.

J.Itten (1975) esa tasvirdagi yorug'lik, shakl va hajm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tavsiflagan. Operator va rejissyor o'rtasidagi hamkorlik va ularning kino yaratishdagi o'zaro bog'liqligi yorug'lik tomonidan alohida takidlab o'tish joiz. Kinematografiyada yorug'lik va yoritishning o'rnini, uni o'zini ifodalash vositasi sifatida yuqori tavsiflagan.

XX asrning 20-yillaridagi fransuz operatorlarining yoritish sxemalaridan foydalanish metodikasini *J.Sadul(1961)* tasvirlab bergan. Sun'iy yoritishning psixologik qabul qilinishini *Z. Krakauer (2009)* asarlarida tasvirlagan.

Filmdagi yorug'likning mustaqil rolini alohida ajratib ko'rsatgan. Kamera va yoritish bilan ishlashning amaliy usullarini B. Brown (2011) tomonidan tavsiflab bergan.





Delluk fikriga qisman qo'shilish va qisman e'tiroz bildirish mumkin. Operator rassom sifatida nafaqat yaxshi tasvir, balki dramatik komponentni ham berishi kerak. Buni esa professional texnik va vizual vositalari yordamida yaratishi mumkin. Maxsus effektlar, kamera, optika, perspektiva, kamera harakati va eng muhimi - yorug'lik yordamida. Yorug'likning xususiyatlari ko'rinadigan darajada oddiy emas, balki ancha murakkab. Operatorlik kasbiga tegishli bo'lmagan va moslashgan nigohga ega bo'lmagan kishi bu san'atning murakkabligi va nozik tomonlarini tushuna olmaydi. Xususan, "Yorug'lik va yoritish mohiyatini chuqur tushunmasdan turib, tasvir yaratish tizimlarida professional mahoratga erishib bo'lmashligini" (7-bet). *Lidiya Dyko (1977)* hamda operatorlik malakasiga ega bo'lishning muhimligini, haqli ravishda qayd etgan.

Shuningdek operatorlik jihozlaridan foydalanishdagi malaka haqida gapirib, "Fotosurat yorug'lik yordamida yaratiladi. "Fotosurat" so'zi odatiy bo'lib ketgan, uning asl ma'nosi ko'pincha unutiladi. So'zma-so'z tarjimasida u 'yorug'lik bilan chizilgan rasm' degan ma'noni anglatadi".

Ta'kidlash kerakki, kinematografiyaga nazar solsak, o'z tarixida uzoq shakllanish yo'lini bosib o'tdi. Jihozlar, kadrdagi voqealar tabiati o'zgargan va suratga olish sharoitlari, asbob-uskunalar va operatorlarning mahorati takomillashganini ko'rish mumkin. Ammo kinematografiyaning dastlabki bosqichlarida suratga olish imkoniyatlari juda cheklanganini bilish qiyin emas edi. Shunga qaramay, rassomlar quyosh nurlarining tushishi, sham, chiroq, mo'ri olovi va boshqa manbalardan foydalanib, turli xil badiiy effektlar yaratishni o'rganganlarni bilinadi.

Operatorning arsenalida turli xil yoritish moslamalari mavjud, lekin ular obyektga nisbatan qanday joylashishiga qarab, suratga olinayotgan tasvirning xarakteri o'zgaradi. *Fil Xanter* ma'lumotlariga ko'ra, quyidagilarga bo'linadigan yorug'lik manbalarini mavjud.

1. Chizuvchi (asosiy) yorug'lik,
2. To'ldiruvchi yorug'lik,
3. Qarshi yorug'lik,
4. Fon yorug'ligi,
5. Modellastiruvchi yorug'lik Ushbu manbalar bilan operator aynan shu tartibda ishlashni boshlaydi. Eng muhimi - chizuvchi (asosiy) yorug'lik bo'lib, u qanday joylashgani kadrlarning kayfiyatini va xarakterini belgilaydi. Masalan:

Yuqoridan yoritish - "Gollivud yoritishi" efekti beradi,

Pastdan - qo'rquv,

Yon tomondan - sirli kayfiyat kabi har bir yoritishni o'z mohiyatini ochib berish kabi xususiyatlari mavjudligi sifatida tanilgan.

"*Rembrandt*" - Rassomchilikda mashhur klassik usul hisoblanadi. Rembrandt, to'liq ismi Rembrandt Harmenszoon van Rijn, gollandiyalik rassom va gravyurachi bo'lib, u 17-asrning eng buyuk rassomlaridan biri sifatida tanilgan. U asosan portretlar va diniy mavzulardagi rasmlari bilan mashhur. Rembrandt o'zining yorug'lik va soyani nozik ishlatishi, chuqur psixologik tasvirlari va texnikasi bilan ajralib turadi. Uning rasmlarida insoniy his-tuyg'ularning keng doirasi, ayniqsa,





chuqur qayg'u va azob-uqubatlarni aks ettirgan texnikasi ham mavjud. Bu usulda yorug'lik 45 daraja burchak ostida, ko'z darajasidan yuqoriroqda joylashadi. Natijada, yuzning bir tomoni to'liq yoritilgan, ikkinchi tomonida esa chuqur soyada ko'z ostida uchburchak shakli hosil bo'ladi. Bu esa san'atda o'ziga hos uslub bo'lib xizmat qiladi

Operator nafaqat obyektning suratga olish uchun yoritishni, balki rejissyorning mizanscenasi asoslangan yorug'lik kompozitsiyasini qurishni ham maqsad qilgani aniq, aktyor harakatlarini maksimal ochib berishga, yorug'lik va kompozitsiya uyg'unligini ta'minlashga intilganini alohida mavzu deb qarasa bo'ladi.

Operatorlar orasida *"rejimda suratga olish"* atamasi mavjud. Agar yuqorida tilga olingan *"oltin soatlar"*da quyosh to'g'ridan-to'g'ri yorug'lik beradigan davr bo'lsa, *"rejimda suratga olish"*da aksincha – quyosh gorizont bu davr ortiga botganidan keyin yoki tongda, hali chiqmagan vaqtda amalga oshiriladi. Suratga olish uchun ushbu davrning amaliy davomiyligi taxminan qirq daqiqani tashkil etsada. Bu davrning o'ziga xosligi *Lidiya Dyko (1977)* tomonidan shunday tavsiflangan:

"Tushdan keyingi erta va kechqurun yorug'lik ta'sirida, hali biroz kunduzgi yorug'lik bor, biroq shahar chiroqlari allaqachon yoqilgan payt nihoyatda tasviriy manzarani beradi. Obyektga tarqalgan yorug'lik miqdori minimal bo'ladi, buning natijasida esa soyadagi detallarni nozik ishlab chiqish imkonini beradi."

Operatorlar ko'pincha *"rejimda suratga olish"* usulidan filmdagi tungi sahnalarni yaratishda foydalanadilar. Ushbu qisqa muddatda gorizont va daraxtlarning konturlarini chizib berish uchun yetarlicha yorug'lik bo'ladi, lekin shu bilan birga, bu yorug'lik kunduzgi ta'sir bermaydi. Bu shuni anglatadiki, qancha sifatli va qimmatbaho bo'lmasin, kameraning dinamik diapazoni kechasi o'z xususiyatlarini yo'qotadi – natijada hajm, faktura va soyalardagi detallar yetarlicha ko'rinmay qolishi bir muncha ishlash rejimini qiyinlashtiradi.

Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, operator san'at bilan bir qatorda fizika fanidan ham bilimga ega bo'lishi shart. Quyosh nurlari spektri ob'ektga tushishi natijasida, ob'ekt o'z rangidan boshqa barcha ranglarni yutadi, masalan, qizil rang faqat o'z rangini aks ettiradi. Natijada reflekslar (aks ettirilgan ranglar) hosil bo'ladi. Tajribali operator ushbu reflekslarni ko'ra olishi, kerak bo'lsa, tasvirni kuchaytirish uchun ulardan foydalanishi yoki aksincha – tasvirni buzadigan reflekslarni yashirish imkoniyatini topishi lozim. Reflekslar 2 tur ya'ni rangli yoki rangsiz bo'lishi mumkin. Bu borada Devid Kilpatrik (1984) alohida ta'riflarida aytiladi.

Operatorning jihozlari orasida qora reflektor ham mavjud bo'lib, u oq reflektordan farqli o'laroq, yorug'likni yutadi. Natijada suratga olish joyida reflektorlar san'atkor uchun eng muhim vositalardan biriga aylanadi, aynan ular yordamida badiiy yorug'lik uslubi yaratiladi. Operator uskunalarni tanlashda, reflektor va yorug'lik moslamalarini, suratga olish joylarini va, eng asosiysi, suratga olish jarayonida bu bilimlardan samarali foydalanadi.

Reflektor sifatida yorug'likni aks ettiradigan har qanday narsa ishlatilishi mumkin: qog'oz, bino devorlari, shift, asfalt yoki hattoki osmonga ham reflektor vazifasini bajarishi mumkin.





Film kadri yaratishda kontrastlar muhim rol o'ynaydi. Ular yumshoq ham, qattiq ham bo'lishi mumkin. Ularning darajasi yoritilish darajasiga bog'liq. Agar obyektga qattiq nurlar yo'naltirilsa, chuqur soyalar tufayli kuchli kontrast paydo bo'ladi. Yumshoq yoritishda esa yorug'likdan qorong'ilikka silliq o'tish kuzatiladi, shuning uchun kontrast kamayadi. Johannes Itten (1975) aytadi: "Doira oq bo'lib ko'rinishi uchun fon qanchalik to'q bo'lishi kerakligini his qilish muhim" o'z fikrini ochiq bayon qilgan. Operator yorqin kontrastli tasvir yaratish ko'nikmalarini nafaqat yorug'lik, balki rang yordamida ham rivojlantirishi kerak. Har bir usul filmdagi kayfiyatni yetkazuvchi samarali yorug'lik kompozitsiyasini yaratishda o'z o'rniga ega.

"Kun davomida suratga olish vaqtini bir necha davrlarga bo'lish natijasida, ularning har biri o'ziga xos yoritish xususiyatlariga ega va surat rangiga noyob tus bera oladi" (Dyko, 1977, 116-bet). Operator filim suratga olishda ob-havo va yorug'lik holatini, osmon rangi va boshqa muhim omillarni kutadi. Bular barchasi qahramonning hissiy holatini ta'kidlash uchun qilingan. Har bir kadr san'atkorlar tomonidan vizual asar yaratishda qo'llangan bilim va tajribani o'zida mujassam etgan.

Operatorning vazifasi - texnik vositalar yordamida vizual obraz yaratish, kadr markazidagi kayfiyat va xarakterga mos holda atmosfera bilan to'ldirish hamda buni yorug'lik va rakurslar orqali kuchaytirishdir. Yosh san'atkorlar orasida chiroyli suratga olishga intilgan holda, juda ko'p maxsus effektlar qo'shishadi, bu esa kelajakdagi filmni buzib qo'yadi. Tajribali operator esa har bir kadrning kayfiyatini his qilishi va kerak bo'lsa, uni ifoda vositalari yordamida kuchaytirishi yoki, aksincha, suratni o'z tabiiyligi bilan ajralib turishi lozim, porlashlar, yorug'lik va yarim qorong'ilik, mukammal bo'lmagan detallar, aynan shu omillar atmosfera yaratadi va natijada tomoshabinda ishtirok etish hissini tug'diradi.

"Operatorning yorug'lik bilan ishlashdagi eng oliy vazifasi - yorug'lik kompozitsiyasi yordamida sodir bo'layotgan voqeaning mazmunini ifodalashdir. Bu vazifani bajarishda operator ba'zan tayyor yorug'lik sharoitlarini tanlaydi, ba'zan esa maxsus yorug'liklarni yaratar ekan, u suratga kayfiyat singdiradi".

Operator e'tibor markazini yaratish uchun ko'plab usullardan foydalangan. Masalan, asosiy qahramonning oyoqlari ishlamay qolgan sahnada, operator kompozitsiya yordamida aynan shu joyga e'tiborni jalb qiladi. Bundan tashqari, kadr cheklash va yirik plan yordamida ham ajratib ko'rsatish mumkin. Ammo bu yerda yorug'likka alohida e'tibor berish kerak. Esda tutaylik, qahramon ikki o'nlab odamlar bilan jang qilish arafasida turgan sahnada, operator uning turgan joyini diodli lenta yordamida aniq ajratib beradi. Nur o'ldirilgan odamlarning jasadlari ustiga ham tushadi. Bularning barchasi - tomoshabinga murojaat qilish uchun operator tanlagan e'tibor markazlarini yaratish texnikalaridir.

Xulosa. Vizual obraz yaratishga ta'sir qiluvchi komponentlar birinchi marta tahlil qilindi, kinofilmlarni nazariy tahlil orqali kun vaqti hamda maydondagi yoritilishning yoritish sxemasini shakllantiruvchi bog'liqligi batafsil o'rganildi, vizual material sifatiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlab olindi.





Shuni alohida ta'kidlash kerakki, yosh operatorlar uskunalariga ega bo'lgach, ko'pincha maxsus maktablar yoki ta'lim muassasalarida o'qishni e'tiborsiz qoldirishadi. Buning natijasida kundan kunga vizual mahsulotning sifati pasaytirishga olib kelmoqda. Operatorlik kasbi va uning mahorati qadrsizlanmoqda. Bu esa o'z kasbining ustasi bo'lish uchun yillar davomida egallangan ko'nikmalarning qadrsizlanishiga sabab bo'lib kelmoqda.

Maqola davomida audiovizual asarlarni yaratishda kinematografiyaning asosiy texnikalari tahlil qilindi. Kadr kompozitsiyasi va emotsional holatni yetkazish mahorati tushunchalari ko'rib chiqildi. Tabiiy va sun'iy muhitlarda turli yorug'lik manbalaridan foydalanish batafsil ko'rsatildi. Yetakchi ustalarning audiovizual mahsulotlari tahliliga asoslanib, turli yorug'lik manbalarini qo'llash qobiliyatining ahamiyati isbotlandi. Turli yorug'lik turlarini qo'llashdagi xususiyatlar va qiyinchiliklar ro'yxati tuzildi, audiovizual asar sifatiga bevosita ta'sir qiluvchi asosiy omillar ko'rsatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Александров, Г., 1976. Эпоха кино. Москва: Политиздат.
2. Базен, А., 1972. Что такое Кино? Москва: Искусство.
3. Brown, B., 2011. Cinematography: Theory and Practice: Image Making for Cinematographers and Directors. 2nd ed. Waltham: Focal Press. Vol. 1.
4. Deleuze, G., 1986. Cinema 1: The Movement-Image. Translated by H. Tomlinson and B. Habberjam. Minneapolis: University of Minnesota Press.
5. Hunter, F., Biver, S. and Fuqua, P., 2011. Light Science & Magic: An Introduction to Photographic Lighting. 4th ed. Waltham: Focal Press.
6. Itten, J., 1975. Design and Form: The Basic Course at the Bauhaus and Later. New York: Wiley. Kilpatrick, D., 1984. Light and Lighting. London: Focal Press
7. Kovsh, O. and Dziuba, M., 2022. Symbolism of Color in Cinema. Bulletin of Kyiv National University of Culture and Arts. Series in Audiovisual Art and Production, [e-journal] 5(2), pp.207-215. [https:// doi.org/10.31866/2617-2674.5.2.2022.269532](https://doi.org/10.31866/2617-2674.5.2.2022.269532)
8. B.J.Bazarbayev, Fotometriya va rangshunoslik. (Darslik). – T.

